

4/2022,
iyul-avgust
(№ 00060)



KLASTER – IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHNING MUHIM OMILI

Karimova Nilufar Sadridin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti taynch doktoranti. Toshkent, O‘zbekiston. nilufarkarimova1013@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a11

Annotatsiya

Yangi O‘zbekistonning iqtisodiyotini barqaror ta‘minlashda yangi shakldagi xo‘jalik yuritish usullarini joriy etish iqtisodiy zaruratdir. Jahon amaliyotida o‘zini ijobiy jihatlari bilan o‘zini oqlagan xo‘jalik yuritishning –klaster usulidan O‘zbekiston iqtisodiyotida, xususan, qishloq xo‘jaligi, yengil sanoat va qayta ishlash tarmoqlarida qo‘llanila boshlandi. Bu borada birmuncha tajribalarga erishilgan bo‘lsada, biroq, ularni tashkiliy, moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq muammolar mavjuddir. Mazkur maqolada aynan O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatuvchi klasterlarning iqtisodiy mohiyati, ularni faoliyatiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar hamda ularning yechimlari bilan bog‘liq ayrim masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, xo‘jalik yuritish usuli, klaster, qayta ishlash, tashkiliy, moliyaviy, klaster nazariyalari, imtiyoz, preferentsiya, huquqiy asos, barqaror iqtisodiyot.

Аннотация

Внедрение новых форм хозяйствования является экономической необходимостью для устойчивого поддержания экономики нового Узбекистана. В мировой практике кластерный метод хозяйствования, оправдавший себя своими положительными сторонами, стал применяться в экономике Узбекистана, в частности, в сельском хозяйстве, легкой промышленности и перерабатывающей промышленности. Хотя в этом отношении и накоплен некоторый опыт, однако существуют проблемы с их организационной и финансовой деятельностью. В данной статье описывается экономическое значение кластеров, действующих в Узбекистане, проблемы, препятствующие их деятельности и некоторые вопросы, связанные с их решением.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, управление, кластер, переработка, организационная, финансовая, кластерная теории, привилегия, преференция, правовая база, устойчивая экономика.

Abstract

The introduction of new forms of management is an economic necessity for the sustainable maintenance of the economy of the new Uzbekistan. In world practice, the cluster method of management, which justified itself with its positive aspects, began to be applied in the economy of Uzbekistan, in particular, in agriculture, light industry and processing industry. Although some experience has been gained in this regard, there are problems with their organizational and financial activities. This article describes the economic significance of clusters operating in Uzbekistan, the problems that hinder their activities and some issues related to their solution.

Key words: New Uzbekistan, management, cluster, processing, organizational, financial, cluster theories, privilege, preference, legal framework, sustainable economy.

Kirish (Introduction)

O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga – Birinchi (ma‘rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo‘lgan. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun **“Yangi O‘zbekiston”** va **“Uchinchi Renessans”** so‘zlari bugungi hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarda shu jihatdan alohida kasb etadi.

O‘zbekistonda agrar sohani isloh qilishda, unga bozor mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqol isboti sifatida prezidentimiz tashabbusi ostida qabul qilinayotgan klaster sohasiga oid qaror va farmonlar bunga misol bo‘la oladi. Xususan, klaster usuli yo‘lga qo‘yishda, bu esa bozor tamoyillariga o‘tishda, sohada davlat aralashuvini keskin kamaytirishda, reja ortidan quvish va majburiy mehnat holatlariga butunlay chek qo‘yishda muhim omil bo‘lib kelmoqda. Birgina qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853-son farmoni ijrosini ta‘minlash, meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o‘zlashtirish, paxta, g‘alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo‘jaligi ekinlari ekishni ko‘paytirish, shuningdek, bog‘, tokzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yildi.¹ Buning natijasida oxir-oqibat hosildorlik ham, daromad ham oshmoqda.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishdagi roli va mas‘uliyatini oshirish, mahsulot yetishtiruvchi va uni qayta ishlovchilarning manfaatdorligini ta‘minlashga doir bozor tamoyillarini keng joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi “Paxta –to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-14 son farmoni qabul qilindi².

Farmonga muvofiq uning dolzarbligi paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan joylarda bosqichma-bosqich zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari parkini yaratib, sohani mexanizatsiya darajasini oshirib, yetishtirilgan hosilni chuqur qayta ishlashni yo‘lga qo‘yib, mahsulot yetishtirishda band bo‘lgan aholini sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga o‘tkazib, qolaversa, bu bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirish sanaladi.

Bundan asosiy maqsad, qishloq xo‘jaligida sifatli paxta yetishtirilib, xomashyo o‘z vaqtida va sifati yo‘qotilmasdan sanoat korxonasiga yetkazib berilsagina undan raqobatdosh mahsulot ishlab chiqariladi. Bunda esa dala mehnatkashlari va korxonada ishchilari ham berdek manfaat ko‘radi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4549-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4641164>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi “Paxta –to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-14 son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5731033>

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Umuman olganda, klasterga oid nazariyalarni yaratilishi va ularning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutgan holda quyidagi adabiyotlar, misol uchun klasterlar nazariyasi rus olimlari klasterga oid ilmiy taqdiqot ishlari horijlik olimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan keng o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, J.Ashenbroyx, S.Aleksandr, A.Barabolina, V.Baburin, I.Bortnik, S.Zemtsov A.Marshall, F.Moisey, N.Rudneva, S.Slavyanova, S.Sokolenko, V.Tarassenko³lar tomonidan muayyan ilmiy ishlar olib borilgan. Shuningdek, klaster mohiyati, uni rivojlantirish masalalari O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, professor M. Rahmatovning "Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida" nomli kitobida bu klasterlarni tashkil etish, ularni rivojlantirish hamda moliyalashtirish mexanizmlari haqida masalalar yoritilgan.

O'zbekistonda klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripovlar "Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o'sish" risolasi tomonidan ko'rsatib bergan.

"Klaster" nazariyasining asosi bo'lib, A.Marshallning XIX asr oxirida yozilgan "Iqtisodiyot prinsplari" nomli asarida ixtisoslashgan tarmoq sohalarning alohida hududlarda uyg'unlashishi to'g'risidagi fikr mulohazalari yoritib bergan. Skoch Aleksandr klasterni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha loyihalar ishlab chiqib, A.Barabolina esa o'z tadqiqodlarida klasterning evolyutsion rivojini bir qator bosqichlarini ko'rsatib bergan.

Bu kabi ilmiy tadqiqot ishlarini ilmiy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, klasterlar faoliyatini rivojlantirishda moliyalashtirish masalalari va muommolari hamda ularda qo'llaniladigan usullar tahlillar masalalariga kengroq urg'u berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

O'zbekistonda keyingi yillarda ilg'or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish, qishloq xo'jaligida klaster usulini joriy etishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Klasterlar faoliyati, ularning moliyaviy boshqaruvning xususiyalari va qonuniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish bir qator samarali tadqiqot metodologiyasidan foydalanishni taqozo etadi. Albatta bunda avvalo nazariy mushohada hamda mantiqiy yondoshuv asosida klasterlar faoliyatini moliyalashtirish va unda moliyaviy boshqaruvning yondoshuvlarni ilmiy-nazariy tahlil qilindi. Unga asoslangan holda ilmiy adabiyotlar ilmiy tahlil qilindi, muammoga oid ilmiy tadqiqotchilar va mutaxassislarning ilmiy-nazariy qarashlari bunda umumlashtirish va guruhlashtirish metodga asoslandi. Rasmiy va amaliy materiallarga asoslangan holda sintez va tahlil usullarga asoslanib ilmiy xulosalar olindi, deduksion yoki induksion yondoshuvga asosan klasterlar moliyalashtirish jarayonida moliyaviy boshqaruvga ta'sir

³ Жак Ашенбройх. Революционные фундаментальные инновации. Состояние инноваций в 2016. Stateofinnovtijn. com., Счоч, Александр. Международный опыт формирования кластеров. (Электронный ресурс)//Режим доступа. www.intelros.ru. А.Бараболина. Формирование автомобильного кластера в Китае (Электронный ресурс)//Проблемы современной экономики.2008№ 4(24) Режим доступа:<http://www.m-economy.ru>., В.Бабурин ., Земцов С.П. (Инновационный потенциал регионов России. Москва: КДУ, 2017, 358 с. ISBN 978-5-91304-721-2)., В.Бабурин, Земцов С.П. (Инновационный потенциал регионов России. Москва: КДУ, 2017, 358 с. ISBN 978-5-91304-721-2)., И.Бортник , Земцов С.П., Сорокина А.В., Павлов П.Н., Иванова О.В., Куценко Е.С. (Становление инновационных кластеров в России: итоги первых лет поддержки // Инновации. 2015. № 7. С., А.Marshall,principles of Economics,1890., Ф.Моисей, Славянова Светлана (Кластер номер один//Эксперт Юг № 48 (137), 2010)., Н.Руднева Опыт создания структурных кластеров в развитых странах (Электронный ресурс)// Экономика регион.2007,№18 Ч.2(декабрь) Режим доступа:<http://journal.vlsu.ru>.,С.Соколинко О кластеризации в странах ОЧЭС (Электронный ресурс) // Режим доступа:<http://www.ucci.org.ua>., Владислав Тарасенко (Территориальные кластеры: Семь инструментов управления. — М.: Альпина Паблишер, 2015. — 201 с.

etadigan omillarni quyidan yuqoriga va aksincha tartibda tadqiq etish imkoni tug'ildi. Mantiqiy va taqqoslama, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullarni qo'llash orqali kompleks tahillarga asoslanib ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

So'nggi besh yilda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy hayotida klaster atamasi tez-tez ishlatila boshlandi. Klaster tizimi bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalariga kirib kelmoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi "Klaster" atamasi o'zi nima? Klaster to'g'risidagi nazariyalar bu savolning javobini ochib beradi. Klaster nazariyasining asosi bo'lib, Alfred Marshalning XIX asr oxirida yozilgan "Iqtisodiyotning prinsiplari" nomli asarlarida (1890) ixtisoslashgan tarmoq- sohalarning alohida hududlarda uyg'unlashishi to'g'risida fikr-mulohazalarini yuritib klaster atamasini ochib bergan.

"Klaster" nazariyasini o'rganish jahon hamjamiyatida tez suratlarda o'sib bormoqda va uni amaliyotda qo'llash esa milliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishiga aylanmoqda.

"Klaster" atamasi fransuscha so'z bo'lib, o'zbekcha tarjimasi "bog'lam", "guruh", "to'plam" ma'nolarini bildiradi. Klaster-bu yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan agrar, sanoat va boshqa izdosh korxonalar majmui bo'lib, u ilm-fan, ta'lim hamda agrar sanoat sohalarida ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, fan-texnika yangiliklarini, innovatsion g'oyalarni, yangi texnika va texnologiyalarini amaliyotga jadal joriy etib, mehnat unumdorligini, qo'shimcha mahsulot yaratishni oshirish imkoniyati beruvchi xo'jalik tizimidir.⁴

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan klasterlar faoliyatidagi islohatlar natijasining birdan bir maqsadi yerdan samarali foydalanishdir. Klasterlar faoliyati tashkil etilgach, sohalarda qanday ijobiy o'zgarishlar, uning afzaliklari nimada namoyon bo'ladi degan savollarga javob olish uchun avvalo quyidagi misollarga e'tibor qaratish joiz. Ana shunday innovatsion loyihalardan birini Buxoro viloyatida amalga oshirilmoqda. Jumladan, "BCT Cluster" davlatimiz rahbarining 2017-yil 19-maydagi "Buxoro viloyatida zamonaviy paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan tashkil etilgan bo'lib, paxta yetishtirishdan tortib uni chuqur qayta ishlashgacha bo'lgan barcha texnologik zanjirni to'liq birlashtirgan majmuadir.

Romitan tumanidagi 8 000 gektar maydonda paxta yetishtirilsa, tola Buxoro shahrida bunyod etilgan zamonaviy to'qimachilik majmuasida qayta ishlanadi. Ushbu yirik loyihamizni amalga oshirish uchun jami 106,5 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi. Zanjirli ishlab chiqarishning oxirgi halqasi hisoblanadigan "Bukhara Cotton Textile" korxonasi uchun esa 65,2 million AQSH dollari miqdoridagi investitsiya yo'naltirildi.⁵ Natijada Buxoro shahridagi sobiq to'qimachilik kombinati hududida zamonaviy ishlab chiqarish ob'ekti paydo bo'ldi.

Klasterning ahamiyati shundaki, mazkur usulda paxta yetishtirish bilan cheklanib qolmaydi, balki tolni birlamchi holatidan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha klasterning o'zi shug'ullanadi. Boshqacha aytganda, qishloq xo'jaligi va sanoat integratsiyalashadi, dala mehnatchilari va korxonalar ishchilarining manfaatlari mushtaraklashadi. Eng asosiysi, chekka qishloqlarga sanoat salohiyati ortadi, eksport

⁴ Iqtisodiyot nazariyasi darslik Sh.Shodmonov M.Rahmatov Toshkent 2021 -yil 439- bet

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19-maydagi "Buxoro viloyatida zamonaviy paxta to'qimachilik klasterini yaratish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2978 sonli qarori

imkoniyati kengayadi. Bugungi kunda paxta maydonlari yil sayin qisqartirilib, uning o‘rniga yangi bog‘lar barpo etilyapti. Bu shuni anglatadiki, qanday mahsulot ko‘p daromad keltirsa, tashqi va ichki bozorda qaysi mahsulotga talab yuqori bo‘lsa o‘sha mahsulot ekilishi kerak deb o‘ylayman. Yurtimizning bir qancha viloyatlardagi tumanlarda xususan, Asaka, Kitob, Qibray, Parkent, Jomboy, Zangiota tumanlarida paxta ekilmay, uning o‘rniga meva poliz ekinlari kartoshka yetishtirilib ichki bozor bilan bir qatorda tashqi bozorga katta qismi eksport qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda Paxta-to‘qimachilik yo‘nalishida bir qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Bular quyidagilar:

- paxta hosilini moliyalashtirish shudgor davridan boshlanishi, klasterlar paxta yetishtirish (paxta qiymatining 60 foizi) uchun Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi tomonidan joylashtirilgan mablag‘lar hisobidan 24 oyga kredit ajratilib, uning imtiyozli davri 11 oydan 18 oygacha uzaytiriladi;

- klasterlarga paxta terimini (paxta qiymatining 20 foizi) moliyalashtirish uchun ham Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi mablag‘laridan imtiyozli — 10 foiz stavkada kredit ajratiladi;

- paxta yetishtirish uchun imtiyozli kreditlar faqat klasterlar orqali moliyalashtiriladi; yakuniy hisob-kitob uchun (paxta qiymatining 20 foizi) olingan kredit foizining Markaziy bank stavkasidan (14 foiz) oshgan qismi Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi hisobidan qoplab beriladi.

Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarish va klasterlari paxta xom ashyosi yetishtirish davrida ilg‘or zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda paxta hosildorligini qo‘shimcha 10 sentnerga oshiradi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari yuqori unumli paxta hosili olish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan: chigit ekiladigan yer maydonlarini oziqlantirish uchun xorijdan (Rossiya, Qozog‘iston) fosforli o‘g‘itlar hamda agrotexnik ishlovlar berish davrida zararkunandalarga qarshi kurashda kimyoviy preparatlar Xitoy, Turkiya, Rossiya, AQSH, Avstraliya, Shvetsiya va boshqa davlatlardan xarid qilinmoqda. Paxta ekilgan yer maydonlarining sug‘orilishi qiyin bo‘lgan joylarda zamonaviy tomchilatib so‘g‘orish texnologiyalarini joriy etgan holda sug‘orish ishlari amalga oshirilmoqda va gektridan 50-60 sentnerdan paxta yetishtirishga erishilmoqda.

Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarish va klasterlari paxta terishni zamonaviy usullaridan foydalanilmoqda, jumladan, AQSH (John Deere), Germaniya (Case), Xitoy va boshqa davlatlarda ishlab chiqarilgan paxta terish mashinalarida terib olinmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizning paxta-to‘qimachilik yo‘nalishidagi klasterlar soni 2019 yilda 75 tani, yilda 2020 paxta-to‘qimachilik yo‘nalishidagi klasterlar soni 96 tani, 2021 yil paxta-to‘qimachilik yo‘nalishidagi klasterlar soni 122 tani tashkil qilib kelinmoqda.

1-jadval

O‘zbekistonda paxtachilikka ixtisoslashgan klasterlar va ularga ajratilgan yer maydonlarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi⁶

| Hudud | Klasterlar soni | Paxta maydoni | |
|-------------------------------|-----------------|---------------|--------------------------|
| | | Jami | O‘rtacha bitta klasterga |
| Respublika bo‘yicha | 96 | 907783 | 976.10 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 5 | 48665 | 9733 |
| Andijon viloyati | 12 | 79391 | 6616 |
| Buxoro viloyati | 8 | 97900 | 12237 |

| | | | |
|----------------------|----|--------|-------|
| Jizzah viloyati | 5 | 69700 | 13940 |
| Qashqadaryo viloyati | 9 | 111900 | 12433 |
| Navoiy viloyati | 2 | 32588 | 16294 |
| Namangan viloyati | 7 | 63406 | 9058 |
| Samarqand viloyati | 11 | 75580 | 6871 |
| Surxandaryo viloyati | 6 | 60044 | 10007 |
| Sirdaryo viloyati | 6 | 72557 | 12093 |
| Toshkent viloyati | 6 | 65008 | 10835 |
| Farg’ona viloyati | 9 | 63245 | 7027 |
| Xorazm viloyati | 10 | 77799 | 7780 |

1-jadval ma’lumotlariga asosan 2020 yil sarhisobi bo’yicha paxta-to’qimachilik ishlab chiqarish va klasterlari tomonidan 906 313 gektar yer maydoniga paxta xom ashyosi yetishtirildi. Bu Respublikadagi paxta xom ashyosi yetishtiradigan umumiy yer maydonning 87,7 %, tashkil etadi. Birgina Xorazm viloyatini oladigan bo’lsak 2019 yil klaster soni 6 tani tashkil qilgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2020 yilga kelib 10 ta klaster sonini tashkil qildi.

2-jadval

Yuqori qo’shilgan qiymatga ega to’qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning 2020 — 2025 yillarga mo’ljallangan maqsadli parametrlari⁷

| T/r | Mahsulot nomi | O’lchov birligi | 2019 yil | Yillar | | | | | | 2025 yilga o’sish prognozi |
|-----|--|-----------------|----------|---------|---------|----------|----------|----------|----------|----------------------------|
| | | | | 2020y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023 y. | 2024 y. | 2025 y. | |
| I. | To’qimachilik –trikotaj mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi | Mln.doll | 4 325,5 | 5 861,6 | 8 058,2 | 11 319,3 | 12 514,1 | 13 764,6 | 15 028,5 | 3,5 marta |
| 1. | Ip-kalava, Shundan bo’yalgan va aralash | Ming tn | 623,7 | 770,3 | 921,4 | 930,2 | 974,3 | 990,3 | 1 032,5 | 2,7 marta |
| | | | 182,5 | 223,6 | 248,5 | 276,0 | 413,0 | 463,8 | 470,5 | 2,6 marta |
| 2. | Tayyor ip-gazlama jami: | Mln. kv.m | 471,0 | 963,4 | 1 061,9 | 1 237,9 | 1 253,4 | 1 364,2 | 1 425,9 | 3 marta |
| | Shu jumladan paxtan tashqari tayyor ip gazlamalar | | 130,3 | 223,6 | 248,5 | 276 | 413,6 | 463,8 | 470,5 | 3,6 marta |
| 3. | Tayyor trikotaj-mato | Ming tn | 174,8 | 227,5 | 350,0 | 406,8 | 520,0 | 540,0 | 546 | 3,1 Marta |
| 4. | Tikuv trikotaj mahsulotlari | Mln. dona | 790 | 1 070,6 | 1 680 | 2 850 | 2 248,3 | 3 080,0 | 3 205,3 | 4,1 Marta |
| 5. | To’qimachilik galantereyasi | Mlrd. so’m | 72 | 106,5 | 156,8 | 191,6 | 221,3 | 278,1 | 360,5 | 5 marta |

⁷ 2016-2021 yillarda qabul qilingan to’qimachilik sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar to’plami ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

| | | | | | | | | | | |
|-----|---|------------|---------|---------|-------|---------|----------|---------|----------|--------------|
| 6. | Paypoq mahsulotlari | Mln. juft | 260,8 | 312,4 | 325,9 | 409,3 | 415,1 | 421,8 | 427 | 1,6 Marta |
| II. | To'qimachilik va trikotaj mahsulotlarning eksport hajmi | Mln. doll. | 2 156,4 | 2 703,3 | 3 130 | 3 908,3 | 4 760,00 | 5 731,9 | 7 075,00 | 3,3 Marta |

2-jadval ma'lumotlariga asosan xom ashyoni chuqur qayta ishlash asosida bozor talablaridan kelib chiqqan holda yuqori qo'shilgan qiymatga ega to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning 2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan maqsadli parametrlarida to'qimachilik–trikotaj mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi 2025-yilda o'sish ko'rsatkichi 3.5 marta yetkazish rejalashtirishini ko'rishimiz mumkin. Eksport hajmi esa to'qimachilik va trikotaj mahsulotlarida 2025- yilda bu ko'rsatkich prognozi 7075.00 mln dollni tashkil qilmoqda. 2025-yilga nisbati o'sish ko'rsatkichi 3.3 martani tashkil qilish prognoz qilingan. Bu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, yuqori qo'shilgan qiymatga ega to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning 2020 - 2025 yillarga nisbati o'sish prognoz qilinmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib aytganda, klasterlar innovatsion, raqobatbardosh va samarali iqtisodiyotning shakllantirilishi zamonaviy iqtisodiy vositachisi, yaratilgan tayyor mahsulotlarning iste'molchigacha yetib borishini, ishlab chiqarish kuchlarining yuksalishini, ishlab chiqarish hajmining o'sishini, sog'lom ishlab chiqarish munosabatlarini hamda samaradorlikni ta'minlovchidir. Yangilanishlar "Inson kapitali", ya'ni soha va sohalararo faoliyatni o'zida mujassamlashtirgan klasterlardagi tashabbuskor mutaxassislarining tafakkuri bilan bog'liq. Mazkur klasterlarda sohalarning ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi bilan bir qatorda, soha kichik korxonalarining manfaatli kooperatsiyasi, sohalararo ichki va tashqi integratsiya elementlari ham yuksalishiga zamin yaratadi.

Bugun kunda klaster faoliyatini amalga oshirishda bir qancha muommolar mavjud jumladan:

- klaster faoliyatlarni tartibga solib turuvchi yagona normative huquqiy hujjatning mavjud emasligini aytib o'tishimiz mumkin;
- fermerlarda o'z mahsulotlarini sotishda xaridorni tanlash imkoniyati mavjud emasligi;
- Tadbirkorlar klaster maqomini olganda, rag'batlantish mexanizimi va yagona soliq imtiyozlarining mavjud emasligi;

Takliflar

- Klasterlar yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmuasida bo'lish kerak;
- Klasterlar faoliyatini takomillashtirishda ilm-fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish;
- Yangi ilg'or tizimni yaratishda olim va iqtisodchilar, qishloq xo'jaligi hamda sanoat hodimlari salohiyatini, ilg'or tajribasini yagona maqsad yo'lida birlashtirish kerak;

Foydanilgan adabiyotlar

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19-maydagi “Buxoro viloyatida zamonaviy paxta–to‘qimachilik klasterini yaratish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2978 sonli qarori

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora tadbirlari to‘g‘risida 16.11.2021 yildagi PF-14 son

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori

- Жак Ашенбройх. Революционные фундаментальные инновации. Состояние инноваций в 2016. Stateofinnovtijn. com.

- Скоц, Александр. Международный опыт формирования кластеров. (Электронный ресурс)//Режим доступа. www.intelros.ru.

- В.Бабурин, Земцов С.П. (Инновационный потенциал регионов России. Москва: КДУ, 2017, 358 с. ISBN 978-5-91304-721-2).

- И.Бортник, Земцов С.П., Сорокина А.В., Павлов П.Н., Иванова О.В., Куценко Е.С. (Становление инновационных кластеров в России: итоги первых лет поддержки // Инновации. 2015. № 7. С.

- A.Marshall,principles of Economics,1890.

- Murtazo Axmedovich Rahmatovning “Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida”T:” Zamin nashr” 2021,212b

- M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripovlar “Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o‘shish” risolasi T:”Zamin nashr”2018